

**Umida BURIEVA,**

*O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD*

*E-mail: [umida.burieva.1984@mail.ru](mailto:umida.burieva.1984@mail.ru)*

*Tel: (90) 9294884*

*Toshkent Farmatsevtika instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida f.f.f.d (PhD) dotsent A.A.Rahmonova taqrizi asosida*

## THE CONCEPT OF DISCOURSE AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTICS

Annotation

In this article considered the Uzbek and English discourses in modern linguistics have syntactic, semantic and pragmatic properties as a scientific term, are used as a complex communicative phenomenon, and the examples and conclusions based on the analysis of the characteristics of the data.

**Key words:** pragmalinguistics, discourse, linguopragmatics, context, situation, deixis, presupposition, context, situation, deixis, presupposition, artistic discourse, text, dialogic unit, illocutionary purpose.

## ПОНЯТИЕ ДИСКУРСА И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.

Аннотация

В данной статье рассмотрены узбекский и английский дискурсы в современной лингвистике обладают синтаксическими, семантическими и прагматическими свойствами как научный термин, используются как сложное коммуникативное явление, а примеры и выводы основаны на анализе особенностей данных.

**Ключевые слова:** прагматическая лингвистика, дискурс, лингвопрагматика, контекст, ситуация, дейксис, пресуппозиция, контекст, ситуация, дейксис, пресуппозиция, художественный дискурс, текст, диалогическая единица, иллокутивная цель.

## O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA DISKURS TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy lingvistikada o'zbek va ingliz tillari diskursning ilmiy atama sifatida sintaktik semantik va pragmatik xususiyatga egaligi, murakkab kommunikativ hodisa sifatida qo'llanilishi, xususiyatlariga oid ma'lumotlar tahlili asosidagi misollar va xulosalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** pragmalingvistika, diskurs, lingvopragmatika, kontekst, vaziyat, deysis, presuppozitsiya, kontekst, vaziyat, deysis, presuppozitsiya, badiiy diskurs, matn, dialogik birlik, illokutiv maqsad.

**Kirish.** Pragmatik lingvistikada muhim o'rin tutadigan va keng o'rganiladigan tushunchalardan biri, bu diskurs hisoblanadi. Pragmalingvistika va kognitiv tilshunoslikda diskurs asosiy ahamiyat kasb etadigan masalalardan biridir. Ko'pgina zamonaviy tilshunoslar diskurs tushunchasini bevosita matn bilan bog'lashadi [1]. Ayrim hollarda esa birlashtirilgan matnlar to'plami sifatida e'tirof etiladi [2].

Hozirgi zamon tilshunosligida biz turli lingvistik yo'nalishlar asosida tilshunoslik fanining yuksalishiga guvoh bo'layapmiz. Lingvopragmatika, tilning real sharoitda mavjudligi va vazifa bajarishi bilan bog'liq muammolar to'g'risida bahs yuritadi, boshqacha aytganda, pragmatika kontekst tarkibidagi ma'noni ifodalaydi. Pragmatik tilshunoslik tadqiq predmeti nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmatistika kabi sohalarining shakllanishiga zamin yaratdi. Zamonaviy manbalar lingvopragmatikani nutqda lisoniy belgilarning amal qilishini "belgi – belgidan foydalanuvchi" munosabati yo'nalishida o'rganuvchi tilshunoslik sohasi deb belgilaydi. Semiotika bilan bog'liq masalalarni tadqiq etgan Ch.U.Morris mazkur fan doirasida uch bo'limni ajratadi: belgilar o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi sintaktika (sintaksis), belgi va belgilangan o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi semantika, belgi va uni qo'llovchi (interpretator yoki uni tuzuvchi va tushunuvchi) o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi pragmatika [3] deb yozgan edi. Bundan tashqari pragmatizm yo'nalishining asoschilaridan Ch.S.Pirs va Ch.U.Morris pragmatikani lisoniy birliklardan ma'lum nutqiy vaziyatlarda belgilangan kommunikativ maqsadda foydalanuvchi va mazkur muloqot jarayonida qo'llanuvchi belgilar munosabatini o'rganuvchi fan sifatida izohlaydi [4].

Lingvopragmatikaning nazariy asoslari XX asrning 60-yillarida Oksford maktabi tilshunos-faylasuflari B.Rasseo, D.Ostin, X. Graus, Dj. Syorl kabi tilshunos olimlar tomonidan ishlab chiqildi va ularning xizmatlari hamda 1969 yilda "Nutqiy aktlar, Til falsafasi ocherki" kitobining nashr etilishi bilan pragmatik nazariya yangi bosqichga ko'tarildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Diskursning umumiy tavsifi hamda xususiy ko'rinishlariga doir ilmiy izlanishlarning eng kam sirasi tahlili ham bu boradagi qarashlarning g'oyat xilma-xilligini ko'rsatdi. Ya'ni, ma'no va mazmun inobatga olish orqali nazariy muammolar bilan birga amaliy masalalar yechimini topishga urg'u berila boshlandi. Diskurs haqida adabiyotlarda turlicha ta'riflar bor shulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Deyk T.A. van "Diskurs – kommunikativ harakatning yozma yoki og'zaki verbal mahsul[5]" deb, ta'rif bergan. Bunda asosan tilshunos diskurs atamasini muloqotda yozma va og'zaki hosil bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Haqiqatdan ham tilshunosning ta'rifi juda o'rinli ta'rifdir. Biz bilamizki, diskurs bu tekst, yozma yoki og'zakimi, axamiyati yo'q.

Karimova R.A. o'z tadqiqotlarida "Diskurs matn bilan yoki uning hosil bo'lishiga ta'sir etuvchi lingvistik bo'lmagan omillarni o'z ichiga olgan murakkab kommunikativ hodisadir [6]" deb, ta'rif berib ketgan. Bu ta'rifda tilshunos diskursni murakkab kommunikativ hodisa sifatida qaragan va o'z ilmiy ishlarida bu atamani shu yo'nalishda tushuntirgan.

Karasik V.I. o'z ta'rifida muloqot jarayonida yaratilgan matnga yoki onga muloqotni o'z ichiga olgan vaziyat sifatida qaragan: "Diskurs – kommunikantlarning ongini o'z ichiga olgan kommunikativ vaziyat va muloqot jarayonida yaratilgan matn [7]". Aslida bu fikrni to'g'ri deyish mumkin lekin, boshqa tomondan qaraganda diskursni vaziyat deyish noto'g'ri, chunki diskurs vaziyat emas balki, matndir.

N.D.Arutyunovanning tadqiqotlarida diskurs qanchalik keng ma'no anglatishini ko'rishimiz mumkin. Tilshunos o'z ta'rifida diskursni mukammal ochib bergan: "Diskurs – voqea jihatdan olingan ekstralingvistik, pragmatik va boshqa omillar bilan birlashtirilgan izchil matn [7]".

Chernyavskaya V.E. diskursning muayyan kognitiv va tipologik tarzda shartli aloqa makoni amalga oshiriladigan kommunikativ hodisa ekanligini ta'kidlagan [8]. Bunda tilshunosning diskursni qanchalik chuqur o'rganganligi ko'rishimiz mumkin. Tilshunos asosan diskursning kognitiv va tipologik tomonlariga ko'proq urg'u bergan.

Diskurs so'zi frantsuzcha "discourse" so'zidan olingan bo'lib, orqa-oldiga yugurmoq, aylanma-takrorlanuvchi harakat, suhbat, nutq ma'nolarini anglatadi va u ekstralingvistik – pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan boyitilgan izchil matn, voqeaga bog'liq baholangan matn, maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qabul qilingan odamlarning o'zaro ta'siri va ular ongining mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)ning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan nutqdur [9]. Shuning uchun "diskurs" atamasi, "matn" atamasidan farqli o'laroq, jonli hayotga bo'lgan aloqalar bevosita tiklanmaydigan qadimgi va boshqa matnlarga nisbatan qo'llanilmaydi, deyiladi eng keng tarqalgan ta'riflarda [10].

Pragmatikaning asosiy tadqiq ob'ekti – diskursdir va pragmatik tahlil diskursning tarkibiy qismlari bo'lgan kontekst, vaziyat, deyskis, presuppozitsiya, muloqot ishtirokchilarining etiket me'yorlaridan xabardorligi hamda axborotning noverbal, paralingvistik uzatilishi kabilarni qamrab oladi. Bugungi kundagi falsafiy pragmatizm oqim sifatida tilshunoslikka kirib kelishida amerikalik olim Ch.S.Pirsning alohida ta'siri bo'lgani holda mazkur falsafiy tizimning asosiy g'oyasi semiotik belgining (jumladan lisoniy belgining ham) ma'no-mazmuni berilgan belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog'liq holda o'rganishga qaratiladi [11].

Bu haqda G'.Mirsanov o'zining doktorlik dissertatsiyasida so'zlovchi nutqiy ifodasining maqsadi, nutqiy taktika, referentsiya, presuppozitsiya tushunchalariga tegishli jihatlar ko'rib chiqilsa, adresant nutqida emotsional ta'sir, illokutiv maqsad, natija (xabarning informativligini oshirish, emotsional holatni o'zgartirish) kabilarni o'rganiladi [12], deya ta'kidlaydi. Pragmatik presuppozitsiya hodisasida nutqiy harakatning samaradorligi, muloqot ishtirokchilarining axborot mavzusi va u haqidagi bilimi hamda kommunikativ faoliyatning ichki va tashqi shart-sharoitlarining kognitiv idroki asosiy o'rinni egallaydi [13]. Pragmatik ma'lumotlarning entsiklopedik tahlili freymlarda (atama M.Minskiy tomonidan taklif etilgan) o'z ifodasini topadi [14].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Diskurs masalasida olib borilgan so'ngi tadqiqotlarda badiiy matnni keng tarixiy va sotsiomadaniy kontekstni hisobga olmasdan tahlil qilish imkonsiz ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, tilshunos olimlar R.Yakobson, V.V.Vinogradov, Yu.Lotman, I.R.Galperinlar ham o'z asarlarida badiiy matnni keng tarixiy va sotsiomadaniy kontekstni hisobga olmasdan tahlil qilish imkonsiz ekanligini ta'kidlaganlar.

"Badiiy diskurs" termini ham eng maqbul variant sifatida qo'llanila boshlangan [15]. Bu o'rinda adresant va adresat kommunikativ faoliyatda birdek muhim ekanligini e'tiborga olish zarur. Shunday qilib, badiiy diskursni "matn yaratilishi hamda qabul qilinishining umumiy lingvokreativ jarayoni" sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Pragmatik lingvistikada muhim o'rin tutadigan va keng o'rganiladigan tushunchalardan biri, bu diskurs tushunchasi hisoblanadi. Diskurs tushunchasi lingvistik atama sifatida o'tgan asrning o'rtalarida tilshunoslikka kirib keldi. Tilshunoslikda u dastlab gap yoki nutqda bog'lanilgan va kelishilgan mahsul sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida qo'llanilmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Dialogik diskursning ishtirokchilari: adresant hamda adresatdir. Ularning ma'lum bir aniq amaliy ahamiyatga ega umumiy maqsadi bo'ladi. Adresantning aloqa-aralashuv jarayonidan maqsadi (intentsiyasi) nimadir xususidagi axborotni yetkazish va odamlarning ruhiyatiga, axloqiga ta'sir etishdan iborat bo'lsa, adresantning maqsadi tinglashdir. Ularning umumiy maqsadi fikr almashishdan iborat bo'ladi. Kommunikantlarning nutqiy holati, o'z navbatida, jinsiy tafovutlarga ko'ra, madaniy saviyasiga ko'ra, ijtimoiy mavqega ko'ra, yoshiga ko'ra, ma'lumotiga ko'ra, mutaxassisligiga ko'ra, ijtimoiy-ma'naviy dunyosiga ko'ra farqlansa, dialogik diskursdagi nutqiy vaziyat ham turlicha: ko'chada, telefonda, uyda, avtobus (mashina)da va yozma nutqda kabi juda ko'p omillarni hisobga olgan holda dialogik diskursning turli ko'rinishlarini yuzaga keltiradi:

Yoshiga ko'ra:

– *Necha yoshg'a bordingiz? – Yigirma to'rt yoshg'a...* (Abdulla Qodiriy) Qutidor va Otabek o'rtasida bo'lgan mazkur savol-javobda yosh o'rtasidagi tafovutga ko'ra guruhlanish bir muncha faolroq. Shuningdek, bu o'rinda Otabekning to'liqsiz gap shaklidan foydalanishi nutqning ixcham va jonli chiqishiga xizmat qilishi bilan birga uning bu vaziyatda o'ziga erkak kishi tomonidan berilgan ushbu savolga vazminlik bilan munosabatda bo'layotganligi ko'rinib turibdi.

Jinsiga ko'ra:

*To'g'ri aytasiz, – dedi Hasanali, – ammo men ham uning dardiga bir necha kunlab tushunmay yurgan edim.*

– *Xo'sh, dardi?*

– *Muhabbat.*

– *Muhabbat?*

– *Muhabbat!* – deb takrorladi Hasanali. (Abdulla Qodiriy) Mazkur gapning faqat birinchi qismigina to'liq gapdan iborat bo'lib, qolgan qismida keltirilgan barcha savol-javoblar to'liqsiz shaklda bo'lib, birinchi gapning o'zi Otabekning kimnidir sevib qolganligini va bundan aziyat chekayotganligini tasdiqlay oladi.

Ijtimoiy mavqeiga ko'ra:

Diniy olim Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "*Shayx hazratlari, anjir daraxtini yoqsa bo'ladimi?*" savoliga "*Bo'ladi, yaxshi yonadi!*" deb javob berganlar. Bu dialogda to'liqsiz gap qo'llanilgan va qator o'ziga xosliklarga ega.

Madaniy saviyasiga ko'ra:

– *Turkiyada ta'lim olib kelsa bo'ladimi? Kelgandan keyin muammo bo'lmaydimi? – Bo'ladi.* Bu o'rinda savol beruvchining saviyasidan kelib chiqib javob berilganligini e'tiborga olish lozim. Xorijda ta'lim olib kelish bilan bog'liq ushbu dialog parchasidagi bo'ladi so'zining ta'lim olib kelsa bo'ladimi? savoliga javobmi yoki kelgandan keyin muammo bo'lmaydimi? savoliga javoban muammo bo'lishini nazarda tutaydimi. Albatta, buni bilish uchun Turkiyadagi ta'limning qanchalik bizning ta'lim dasturlarimizga muvofiqligini hamda siyosiy tomondan muvofiqligini bilish kerak bo'ladi. Bu o'rinda olimning to'liqsiz gapdan foydalanishi siyosiy ehtiyotkorlik va o'zgaralar diqqatini tortmaslik bilan xarakterlanadi.

Ingliz tilidagi og'zaki nutqning eng muhim ekstralingvistik belgilaridan biri sifatida muloqotning to'g'ridan -to'g'ri tabiati sifatida dialogga xos shaklini nazarda tutadi. Dialogik birliklar tasdiqlovchi izohdan iborat bo'lib, undan keyin bayonot yoki savol shaklida qo'shiladi. Savol-javob izohlarida savol bilan ikkinchi izoh o'rtasida bog'liqlik bor: Masalan,

1. *How did you do it? -By persuasion, I suppose. (R.T)*

2. *Hester: Why do you say that? Miller: Because I seem to have become the embodiment of his conscience. (S.J)*

3. *How did you reach the station? -By walking along the road for an hour. (D.S)*

4. *He is busy till tomorrow. -But I can't wait so long. (G.J)*

5. *Its part of my work. -At which you are such an expert. (Charles Dickens)*

Ikkinchi replika, birinchisining mazmunini kengaytiradi va u bilan belgilanadi. Uning mazmuniga qo'shadigan yoki birinchisining harakatini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni kiritadi.

- *Isn't it monstrous to leave her in this fashion?* - *Monstrous. Did he ever speak to you about a cheque?* - *Never.* (M.W.)

- *Will you be paid?* - *Underpaid, but enough.* (John Galsworthy)

Dialogik birlikning ikkinchi izohida, birinchisining so'zlari takrorlanadi, so'roq so'zlar bilan birga, tushuntirishni talab qiladigan noto'g'ri tushunilgan birinchi gapni aniqlash uchun aniqlovchi so'zlar qo'shiladi. Bunda dialogik birlikning uchinchi komponenti odatda kerakli tushuntirishni o'z ichiga oladi. Masalan:

*1. How long has it been going on?* - *How long has what been going on?* - *In the old days he hardly touched alcohol.* (R.T)

*2. Joyce: But I stopped playing because I couldn't stand it any longer.*

*Philip: Couldn't stand what?*

*Joyce: Couldn't stand the sight of you there.* (P.J)

*Dr. Gorbler: They weren't dreams. They were actual memories.*

*Farrant: Memories of what?*

*Dr. Gorbler: Of past cycles of my own life* (P.J).

Ikkinchi izohda, birinchi so'zda aytilgan fikrni tasdiqlash yoki unga qo'shilish uchun (yoki ular bilan sinonim so'zlar, shuningdek iboralar) birinchisining so'zlari takrorlanishi mumkin. Takroriy so'zlarga malakali so'zlar yoki so'roq olmoshlari qo'shilishi mumkin. Ammo birinchi bilan sintaktik aloqani amalga oshiradigan ikkinchi replikaning tarkibiy yadrosi takror so'zlar bo'ladi. Shunday qilib, takrorlashning sintaktik munosabatlari haqida gapirish mumkin:

**Hulosa va takliflar.** Hulosa qilib aytganda, diskurs o'z ichiga sub'ektiv, ijtimoiy-madaniy, shuningdek stereotip, presedent (namunali) fikrlar, monolog va dialog ko'rinishidagi nutqiy faoliyat jarayonini ifodalovchi tushunchalarni qamrab oladi. Amalda diskurs – bu matnning shakllanish usulidir. Diskurs ilmiy atama sifatida sintaktik- semantik va pragmatik xususiyatga ega. U sintaktik jihatdan ifoda plani, ya'ni strukturasi, semantik jihatdan mazmun-ma'no planiga, pragmatik jihatdan esa perlokutsiya – xabar planiga ko'ra turli fikrlar, nutqiy aktlardan tashkil topgan faoliyat sifatida tavsiflanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va misollar orqali struktur tuzilishi har xil bo'lgan sintaktik birliklarning kommunikativ mavqei bir xil emasligi aniqlanadi. Adabiy tilda ko'proq to'liq gaplar faollasha, og'zaki nutqda to'liqsiz gaplar ko'proq qo'llanadi. Rasmiy matnlardagi gaplarning biror bir elementining tushib qolishi axborotni qabul qilishni qiyinlashtiradi. Badiiy diskursda to'liqsiz gaplar monolog va poeziyalarda ko'p uchraydi. To'liqsiz gaplarning bu tarzda qo'llanilishi ularning tag ma'noda yashiringan to'liq variantlarini zohiran tiklashga imkon tug'diradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Teun van Dijk. *Ideology: A Multidisciplinary Approach* / Dijk van Teun. – London: Sage, 1998. – P. 86.
2. Arutyunova N. D. *Diskurs // Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar* / Gl. red.: V.N. Yartseva. – Moskva, 1990. – S. 136-137.
3. Morris Ch.U., Gryaznov A.F. *Novaya filosofskaya entsiklopediya*. T. Pred. nauch. red: Soveta V.S. Styopin. – 2-e izd., ispr. i dop. – M.: Misl, 2010. – S. 287.
4. Tam je. – S. 286
5. Deyk T. A. van. *Yazik. Poznanie. Kommunikatsiya*. – M., 1989. – S. 46
6. Karimova R.A. *Semantiko-strukturayana organizatsiya teksta (na materiale ustnix spontannix i pismennix tekstov)*. – Ufa: Izd-vo Bash GU, 1991. – S. 8.
7. Karasik V. I. *O tipax diskursa // Yazikovaya lichnost: institutsionalniy i personalniy diskurs: Sb. nauch. st.* – Volgograd, 2000. – S. 5-20.
8. Arutyunova N. D. *Diskurs // Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar* / Gl. red.: V. N. Yartseva. – M., 1990. – S. 136-137.
9. Burieva U.A. *Ingliz tilshunosligida to'liqsiz gaplarning shakllanishi*. – FarDU. Ilmiy xabarlar, 5/2023. – 287 b.
10. Chernyavskaya V. Ye. *Diskurs kak ob'ekt lingvisticheskix issledovaniy // Tekst i diskurs. Problemi ekonomicheskogo diskursa: Sb. nauch. st.* – SPb.: S.Peterb. gos. un-t ekonomiki i finansov, 2001. – S. 14.
11. *Diskurs. Tri podxoda k opredeleniyu diskursa*. <http://yazykoznanie.ru/content/view/60/249/>.Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2000. – B. 37-38.
12. Mirsanov G'.Q. *Aspektuallik va temporallik mazmuni ifodasining kognitiv-pragmatik asoslari (ingliz va o'zbek tillari misolida): Filol. fan. d-ri. (DSc) diss... avtoreferat*. – Toshkent, 2019. – B. 45.
13. Mirsanov G'.Q. *Aspektuallik va temporallik mazmuni ifodasining kognitiv-pragmatik asoslari (ingliz va o'zbek tillari misolida): Filol. fan. d-ri. (DSc) diss... avtoreferat*. – Toshkent, 2019. – B. 45.
14. *Lingvisticheskiy Entsiklopedicheskiy Slovar*. – Moskva: CE. 1990. – S. 390.
15. Normurodova N. *Ingliz badiiy diskursida antropotsentriзмning lisoniy voqealanishi*: Filol. fan. d-ri. (DSc) diss... avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 19.